



**AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DARIDA SOLIQ TIZIMI FAOLIYATI VA
BOSHQARUV TARTIBI.**

**ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ И ПОРЯДОК
АДМИНИСТРИРОВАНИЯ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ АМИРА ТЕМУРА И
ТЕМУРИДОВ.**

**THE FUNCTIONING OF THE TAX SYSTEM AND THE PROCEDURE OF
ADMINISTRATION DURING THE REIGN OF AMIR TEMUR AND THE TEMURIDS.**

Turdaliyeva Gulasalxon Abdusalom qizi

*Farg'ona davlat Universiteti O'zbekiston tarixi kefedrasi Mustaqil izlanuvchi
doktaranti, Qo'shtepa tumani 19-maktab Tarix fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temur va Temuriylar davrida mavjud bo'lgan soliqlarning tizimi faoliyati, uning huquqiy asoslari, boshqaruv tartiblari haqidagi ma'lumotlar tarixiy manbalar hamda mavjud ilmiy adabiyotlar asosida tahlil etilgan.

Аннотация: В статье на основе исторических источников и существующей научной литературы анализируется функционирование налоговой системы ее правовые основы и административные процедуры в период правления Амира Темура и Темуридов

Annotation: This article analyzes the functioning of the tax system, its legal framework, and administrative procedures during the reign of Amir Temur and the Timurids based on historical sources and existing scientific literature.

Kalit so'zlar: xolisa, daftardor, yasoqiy, dorug'a, tamg'achilar, avorizot, qushchi, jogirdor, sarishumor.

Ключевые слова: цель, ясоки, даруга, тамгачилар, аворизот, кушчи, джагирдар, саришумор.

Key words: khalisa, daftardor, yasaqi, dorug'a, tamg'achilar, avorizot, kushchi, jagirdar, sarishumor.

KIRISH: Bugungi kunda Amir Temur va temuriylar tarixi ko'pgina yozma manbalarda o'z aksini topgan bo'lib, shunga bu adabiyotlarda Amir Temur va uning shaxsi bilan bog'liq ko'pgina fikrlar ham aytib o'tilgan. "Umumiy tarixning" mashhur muallifi Georg Veber Amir Temur haqida quyidagilarni qayd qilgan edi: "Temur lashkarboshi, hokim va qonunshunos sifatida yuksak talantga ega bo'lib, bilimlarga o'ch edi, olim, rassomlarga homiylik qilar va yaxshi kayfiyatda bo'lganida "odil qozi" edi". Shu fikrlarni inobatga olganda Amir Temur o'z davlatida adolatli soliq tizimini o'rnata olgan buyuk humdorlardan biri edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI: Amir Temur bilan bir paytda yashagan olimlarning asarlari, temuriy shag'zodalar saroyida ijod qilgan mutaffakkirlarni ijod namunalari, memuar asarlar va jahon adabiyotida Amir Temur davrini yoritilishi



tarixi bilan tanishib chiqamiz. Avval o'sha davrda yozilgan manbalarning qaysi birlarida Temuriylar davridagi soliqlar haqida ma'lumotlar aks etganligiga to'xtalib o'tsak: eng asosiy manba bu Temur tuzuklarining o'zi hisoblanadi, Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma", Sharofiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" (1425), Fasih Xavofiyning "Mujmal-i fasihiy" (1442), Muiniddin Natanziyning "Muntaxab ut-tavorix-i muiniy", Mirxondning "Ravzat us-safo" (1528), Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai sa'dayn va majmai bahrayn" (1475), Z.M.Boburning "Boburnoma", "Mubayyin", Hondamir "Habib us-siyar", Mirzo Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy", kabi asarlarda Amir Temur va temuriylar davrida mavjud bo'lgan soliqlar haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

NARTIJALAR: Amir Temur davlatini yettita vazir boshqarganligi haqida "Temur tuzuklarida" aytib o'tilgan bo'lib, bu vazirlar: 1. Mamlakat va raiyat vaziri. Bu vazir mamlakatning muhim ishlarini, kundalik muommolari, raiyat ahvolini, viloyatlardan olingan hosil, soliq-o'lponlar, ularni taqsimlash, kirim-chiqimlarni, mamlakatning obodonligi va aholining farovonligini ma'lum qilib turgan; 2. Sipoh bo'yicha vazir. Sipohiylarning maoshlari va tanxolarini boshqargan, parokandalikka tushib qolmasligi uchun doimo sipoh ahvolidan podshohga xabar berib turgan; 3. Egasiz qolgan, o'lib ketgan va qochib ketganlarga tegishli mol-mulkni boshqargan; zakot va bojlarni to'plagan; 4. Sarkori hossa, saltanat ishlarini yurituvchi vazir. U butun saltanat idoralarining kirim-chiqimlari, xazinadan sarf qilinadigan harajatlar, shuningdek, otxona xarajatlaridan ogoh bo'lgan; 5, 6, 7. Sarhadlar va tobe mamlakatlarga tegishli ishlarni boshqaruvchi uch vazirdan iborat hayot har kuni hukmdorga hisobot berib turgan. Bu vazirliklar ichida Mulkchilik va soliq ishlari vaziri - o'lib ketgan va qochganlarga tegishli mollarni, kelib-ketganlarning (sayyohlar va savdogarlarning) mol-mulkidan olinadigan zakot, bojlarni, mamlakat chorvlarini, ot-uluvlarini boshqarib ularning barisidan yig'ilgan daromadni, omonat tarzida saqlash ishlari bilan shug'ullangan. U g'oyib bo'lgan va o'lganlarning mol-mulki bo'lsa, merosxo'rlarga topshirgan. **Muhokama:** Amir Temur va temuriylar davrida davlat boshqaruvida mahalliy erkin jamoalar va mahalla oqsoqolliklari katta rol o'ynagan. Amir Temur milliy odatlarga amal qilib, soliq yig'ish va boshqa masalalarda jamoa va mahalla oqsoqolliklarining mustaqil fikrlarini inobatga olgan. Amir Temur biror ishni boshlasa doimo uni muvaffaqiyatli yakunlashga intilgan. U kirim-chiqimlarni, sarf-harajatlarni me'yorida olib borgan, yo'qsillarga doimiy ravishda xayr-ehsonlar in'om etib turgan. Mag'lub shahar aholisidan jizya solig'i (jon solig'i) olingan, mamlakatda katta xavf ostida qolgan paytlarida favqulodda soliq - avorizot yig'ib olingan. Chetdan keltirilgan savdogarlardan boj undirilgan. Zakot- mol-mulkning bahosi yoki chorvaning 1/40 qismi miqdorida yig'iladigan davlat solig'i. Abdurazzoq Samarqandiy o'zining matlasida yozishicha "savdogarlardan olinadigan zakot ularning mol-mulklari qiymatining yoki mol olish uchun keltirilgan pullarning 1/40 qismini tashkil qiladi". Shohrux mirzo



zamonida Dehli viloyatidan keladigan soliqlar Hirotga yetib kelguniga qadar yo'lda amirlar tomonidan talon-taroj qilinayotganligi haqidagi habarlar shohruhga yetib keladi. Hukmdor tomonidan Dehli viloyatidan olinadigan soliqlarni 3 yilligi ro'yhatini tuzib, o'ziga habar berishi kerakligini vaziri Sayyid Imomiddinga yuzlanadi. Bu soliq Balx yo'li orqali kelardi. Lekin Sayyid Imomiddin bir o'zi bunday katta taftish o'tkazaolmasligini tushunganidan keyin bu vazifani o'g'li Muhammad Jo'giyga topshirganligi manbalarda qayd qilib o'tiladi. Soliqlarni o'z vaqtida to'lagan fuqarolarga hech qanday tazyiqlar o'tkazilmagan, aksincha soliqni o'z holaricha to'lamas soliq qilich kuchi bilan olingan. Bunga misol qilib, tarxiy manbalarining guvohlik berishicha Farg'ona vodiysida tog'larida yashagan va yaylov chorvachiligi bilan shug'ullangan qabilalar va ularning mol-mulki haqida haqida ayrim ma'lumotlar saqlanib qolgan. Bobur Mirzo Andijonning sharqidagi tog'larda yashagan chakarak qabilasi haqida so'z yuritgan. Ular asosan qo'y, ot, qo'tos boqish bilan shug'ullangan. Besh olti ming honadonning ya'ni 30 mingdan ortiq aholidan iborat bu qabila vakillaridan soliq faqatgina qo'shin kuchi bilan yig'ib olingan. "Boburnoma"da ha, bir marta soliq yig'ilganda chakaraklar 20 ming qo'y, 1,5 ming ot topshirishga majbur bo'lganligini qayd etiladi. Bu esa ushbu qabilalarda 800 mingdan ortiq qo'y, 40-60 ming atrofida ot bo'lganligini taxmin qilish imkonini beradi. Ko'chmanchilar ham poytaxt Samarqandga belgilangan miqdorda soliqlarni to'lab tuurgan. Misol uchun Xazorayi Oqo nomi bilan mashxur bo'lgan qavm ko'p miqdorda qo'y va mollarga egalik qilib kelganlar va Shohruh mirzo zamonida ham uning poytaxti Hirotga belgilangan soliqlarni to'lab turganlar.

Xulosa: Amir Temur davlati o'nlab davlatlarni, turli dinlarga, huquqiy tizimlarga e'tiqod qilgan, o'nlab xalqlarni o'z tartibiga birlashtirgan bo'lib, bunday davlat qonunchilik tizimisiz, yashay olmasdi,. Shunday vaziyatni hisobga olgan holda Amir Temur o'z davlati uchun qonun tizimlarini yaratdi. O'zbek davlatchiligi tarixining muhim davri Temur saltanati markazlashgan davlati tarixi edi. Saltanat quruvchisining fikricha davlat birinchi galda mamlakatdagi barcha ijtimoiy tabaqalarning mafaatlari himoya qilishi, maslahat, kengash, tadbirkorlik, qonun qoidalar va adolat bilan qat'iyy tartibda boshqarilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

- 1.A.Temur. Temur tuzuklari. T.; "Shodlik", 2018, 110-b.
- 2.Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. Fors tilidan o'rganuvchi Yu.Hakimjonov. Tarimani qayta ishlab, nashrga tayyorlovchi va ma'sul muharrir A.O'rinboyev. – Toshkent. "O'zbekiston", 1996, 206-b.
- 3.Sharofiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma, T.; "Sharq", 1997, 72-b.
- 4.Fasih Ahmad ibn Djalal ad-Din Muhammad al Xavafiy. Mudjmal-I Fasixi. T.; 1980. 350-b.



5. Nataziy M. Muntaxab ut-tavorix-I Muiniy. (Muiniyning tarixlar tanlanmasi) Fors tilidan tarjima, so'zboshi va izohlar muallifi G'. Kirimiy. T.; "O'zbekiston", 2011. 206-b.

6. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai Sa'dayn va majmai bahrayn. Fors tilidan tarjimon so'z boshi va izohlar muallifi A. O'rinboyev 2-jild, 2-3-qism (1429-1470-yillar voqaelari). – T.; "O'zbekiston", 2008, 106-b.

7. Z.M.Bobur. Boburnoma. T.; "O'qituvchi", - 2017

8. Z.M.Bobur. "Mubayyin", T.; "Abdulla Qoiriy nomidagi xalq merosi", 2000

9. G'iyosiddin Hondamir. Habib us-siyar. ;,-"Sharq", 2011